


## V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2020 yilning yanvar-sentyabr holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining soni 19646 tani tashkil qildi. Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlik korxonasi va tashkilotlarining soni Urganch shahrida 4474 ta, Xiva shahrida 1865 ta, Xiva tumanida 1648 ta, Urganch tumanida 2199 ta, Xonqa tumanida 1483 ta, Yangiariq tumanida 1096 ta, Hazorasp tumanida 945 ta, Gurlan tumanida 1241 ta, Qo'shko'pir tumanida 1342 ta, Bog'ot tumanida 1052 ta, Shovot tumanida 959 ta, Tuproqqal'a tumanida 395 ta va Yangibozor tumanida 947 tani tashkil qildi.


**YAngi tashkil etilgan kichik biznes sub'ektlari sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
2020 yil yanvar–sentyabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)



Eng ko‘p kichik biznes sub’ektlari savdo sohasida (jami tashkil etilgan sub’ektlarning (29,1 foizi), sanoat tarmog‘ida (21,3 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (25,8 foiz), qurilish tarmog‘ida (6,3 foiz) tashkil etilgan.

2020 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlik sub’ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo‘yicha eng ko‘p Urganch shahrida 27,2 birlikda, Xiva shaxrida 17,9 birlikda, Yangiariq tumanida 13,4 birlikda, Urganch tumanida 13,8 birlikda, Xiva tumanida 12,2 birlikda, Yangibozor tumanida 14,4 birlikda, Tuproqqal’a tumanida 12,2 birlikda, Gurlan tumanida 10,8 birlikda bo‘lib, o‘rtacha ko‘rsatkich 6-9 birlik oralig‘ida Hazorasp, Bog‘ot, Qo‘shko‘pir, Xonqa, Shovot tumanlarida ushbu ko‘rsatkich past bo‘lib qolmoqda.

**2020 yilning yanvar-sentyabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik sub’ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).**



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni***(birlik, fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

	2020 yil 1 oktyabr holatiga ro'yxatga olingan	2020 yil yanvar-sentyabrda	
		tashkil topdi	tugatildi
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>19646</b>	<b>3704</b>	<b>343</b>
<i>shaharlar:</i>			
Urganch	4474	583	68
Xiva	1865	296	21
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	1052	273	6
Gurlan	1241	299	27
Qo'shko'pir	1342	371	4
Urganch	2199	343	36
Hazorasp	945	170	32
Tuproqqal'a	395	94	1
Xonqa	1483	270	41
Xiva	1648	261	27
Shovot	959	211	11
Yangiariq	1096	213	59
Yangibozor	947	320	10

2020 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyatda ro'yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari soni 3704 tani tashkil topgan bo'lib, bu ko'rsatkich Urganch shahrida 583 ta, Urganch tumanida 343 ta, Xiva shahrida 296 ta, Honqa tumanida 270 ta, Qo'shko'pir tumanida 371 ta, Hazorasp tumanida 170 ta, Xiva tumanida 261 ta, Shovot tumanida 211 ta, Yangiariq tumanida 213 ta, Gurlan tumanida 299 ta, Bog'ot tumanida 273 ta, Yangibozor tumanida 320 ta va Tuproqqal'a tumanida 94 tani tashkil qildi.

2020 yil yanvar-sentyabrda yalpi hududiy mahsulotning 73,6 foizi (2019 yil yanvar-sentyabrda 74,3 foiz) kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2020 yilning yanvar-sentyabrda kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1759,1 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 26,4 foizi) yoki 2019 yilning yanvar-sentyabrga nisbatan o'sish sur'ati 85,5 foizni tashkil qildi;

- 11413,3 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 104,1 foizni (qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari yalpi mahsulotining 99,7 foizi) tashkil qildi;

- 3616,7 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 72,9 foizi) o'zlashtirildi va 2019 yilning yanvar-sentyabrga nisbatan 110,9 foizni tashkil qildi;

- 2040,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 87,4 foizi) bajarildi va 2019 yilning yanvar-sentyabrga nisbatan 95,6 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 77,3 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 97,5 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 97,9 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 93,4 foizi) tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 82,7 foizi yoki 4849,9 mlrd. so'mi (o'sish 95,1 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 64,3 foizi yoki 3029,1 mlrd. so'mi (o'sish 110,9 foiz) shakllantirildi;

- 89,6 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 69,0 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 144,2 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 72,5 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning (fuqarolar mulki) ulushi**  
(2020 yilning yanvar-sentyabr)

	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	11413,3	99,7
Sanoat	1759,1	26,4
Qurilish	2040,7	87,4
Chakana savdo	4849,9	82,7
Yuk tashish, mln tn.	27,0	94,2
Yo'lovchi tashish, mln.kishi	263,5	96,8
Eksport, mln. AQSH doll.	89,8	69,0
Import, mln. AQSH doll.	144,2	72,5

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi**  
(foizda)

